

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**2.2.**

**“O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA  
PEDAGOGIK KOMPETENTLIK”  
MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish  
yo‘nalishi:**

**jismoniy tarbiya fani  
o‘qituvchisi**

**Tinglovchilar  
kontingenti:**

**kasb-hunar maktablari jismoniy  
tarbiya fani o‘qituvchilari**

**Toshkent - 2023**

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2022-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

### Tuzuvchilar:

G. Yeldasheva - JTSBMQTMOI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti, p.f.n., dotsent

### Taqrizchilar:

F. Xodjaev - JTSBMQTMOI "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyoti" kafedrasida professori, p.f.n., professor

G. Karimova - PROFI UNIVERSITY xususiy olim ta'lim muassasasining "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

*Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil -yanvardagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va Markaz Ilimiy Kengashning 20\_\_yil \_\_ \_\_\_\_\_da o'tkazilgan \_\_ sonli qarori bilan nashr qilishga tavsiya qilingan.*

MUNDARIJA

<b>I. Ishchi dastur .....</b>	<b>4</b>
<b>II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari .....</b>	<b>11</b>
<b>III. Nazariy materiallar .....</b>	<b>17</b>
<b>IV. Amaliy mashg'ulot materiallari .....</b>	<b>43</b>
<b>V. Testlar to'plami .....</b>	<b>63</b>
<b>VI. Glossariy .....</b>	<b>71</b>
<b>VII. Adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>77</b>



## **ISHCHI DASTUR**

## KIRISH

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Shu bois, jismoniy tarbiya o'qituvchisilarning aqliy salohiyatiga, ma'naviy qiyofasiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisilari mashg'ulotlarni optimal darajada tashkil etish shakllarini, barkamol shaxsni shakllantirishni, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunlarini amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz sport ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik kompetensiyasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar XXI asr jismoniy tarbiya fani o'qituvchisidan kasbiy-pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, sport turining nazariyasi va metodikasini chuqur bilishini, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik kompetensiya va mahoratga ega bo'lish jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Kasbiy kompetensiyani oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish orqali pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

#### Modulning maqsadi:

- tinglovchilarda o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun kerakli bo'lgan pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

#### Modulning vazifalari:

- tinglovchining professional kompetentligi yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash;
- zamonaviy talablarga mos holda ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- tinglovchilarda o'quv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish.

### Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

#### Tinglovchi:

- kasbiy faoliyat davomida kompetentliklikning ahamiyati;
- pedagog kadrlarning umumkasbiy kompetensiyalari;
- pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalari;
- kasbiy kompetensiya modeli;
- ta'lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari;
- pedagogik jamoani shakllantirish yo'llari;
- pedagogik jamoaning o'ziga xosligi;
- liderlik darajalariga doir *bilimlar*ga ega bo'lishi zarur.

#### Tinglovchi:

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

- pedagogning tayanch kompetensiyalari;
- o'z kasbiy faoliyat sohalarida normativ - huquqiy hujjatlar bilan ishlash;
- pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish;
- pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri o'rnatish;
- lider va jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar mazmuni bo'yicha *ko'nikmalar*ni egallashi zarur.

### Tinglovchi:

- pedagog kadrlarning umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarini oshirish;
- pedagogik jamoani shakllantirish;
- pedagogik jamoani boshqarish uslublaridan samarali foydalanish;
- shaxsning liderlik xislatlarini rivojlantirish kabi *malakalar*ni egallashi lozim.

### Tinglovchi:

- pedagog kadrlar o'z umumkasbiy kompetentligini oshirish;
- pedagog kadrlarning o'z kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligini amalga oshirish;
- pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlarni boshqarish;
- tinglovchilarda o'quv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish ega bo'lish kabi *kompetensiyalar*ni egallashi lozim.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Kasbiy kreativlik va uni rivojlantirish metodikasi", "Innovatsion ta'lim texnologiyalari", "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

**Modulning sport ta'limidagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogning professional kompetentligini oshirish va amaliyotda qo'llashga doir umumiy va kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar va pedagogik mahoratini oshiradilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg' ulot	Ko' chma mashg' ulot	
1.	Pedagog kadrlarning umumkasbiy va kasbiy kompetentsiyalari	2	2	2			
2.	O'quv-me'yoriy hujjatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish	4	2	2			2
3.	O'quv jarayonini tashkil etishda jamoaning ahamiyati	2	2		2		
4.	Jamoaviy liderlik kompetentligi	2	2		2		
Jami:		10	8	4	4		

**NAZARIY TA'LIM MAZMUNI**

**1-mavzu. Pedagog kadrlarning umumkasbiy va kasbiy kompetentsiyalari**

**Reja:**

- 1.1. Kasbiy faoliyat davomida kompetentlikning ahamiyati
- 1.2. Pedagog kadrlarning kompetentsiyalari



Kasbiy faoliyat davomida kompetentlikning ahamiyati. Pedagog kadrlarning umumkasbiy kompetentsiyalari. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentsiyalari. Kasbiy kompetensiya modeli. Pedagogning tayanch kompetentsiyalari.

## **2-mavzu. O‘quv – me‘yoriy hujjatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish**

### **Reja:**

2.1. Ta‘lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari

2.2. O‘quv – me‘yoriy hujjatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish

Ta‘lim-tarbiya jarayoni. Ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Davlat ta‘lim standartlari. O‘quv reja va o‘quv dasturlar. Pedagogning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg‘ulotga tayyorgarligi.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **3 - mavzu. O‘quv jarayonini tashkil etishda jamoaning ahamiyati**

#### **Reja:**

3.1. Pedagogik jamoa tushunchasi.

3.2. Pedagogik jamoadagi o‘zaro munosabatlar.

Jamoaviylik, jamoa a‘zolari bilan birdamlik, o‘zini jamoa a‘zosi deb his qilish tuyg‘usi. Pedagogik jamoani shakllantirish yo‘llari. Pedagogik jamoaning o‘ziga xosligi. Pedagogik jamoadagi o‘zaro munosabatlar. Pedagogik jamoani boshqarish uslublari.

### **4-mavzu. Jamoaviy liderlik kompetentligi**

#### **Reja:**

4.1. Jamoaviy liderlik

4.2. Shaxsning liderlik sifatlarini rivojlantirish


Liderlik darajalari. Jamoaviy liderlik. Shaxsning liderlik xislatlarini rivojlantirish. Lider va jamoa a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar mazmuni.

**Mustaqil tayyorgarlik mazmuni**

Tinglovchilar “O‘quv–me‘yoriy hujjatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish” mavzusi bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishga doir me‘yoriy hujjatlarni mustaqil o‘rganadilar va tahlil qiladilar.

**Dasturning axborot - metodik ta‘minoti**

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediyah mahsulotlari, turli elektron hamda qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



**MODULNI O'QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA'LIM METODLARI**

**“TUSHUNCHALAR TAHLILI” metodi**

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar,
- tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tug'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Kompetensiya		
Kompetentlik		
Kasbiy kompetentlik		
Kasbiy kompetentlik sifatlari		
Kompetensiya turlari		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik "FSMU" metodi

Ushbu metod munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda yoki o'quv reja asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qullanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda Tinglovchilarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglavcholarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq, qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Bu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

Mashg'ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars oxirida jamoa bo'lib ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4 bosqichi yozilgan tarqatma material tarqatiladi. Tarqatma materialda o'tilgan mavzu bo'yicha erkin fikr bildiriladigan savol yoziladi.

*Namuna:*

*Savol: Pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlar ish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

**F** - *fikringizni bayon eting.*

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**S** - *fikringizning bayoniga **sabab** ko'rsating.*

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**M** - *ko'rsatilgan sababingizni isbotlab **misol** (dalil) keltiring.*

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**U** - *fikringizni **umumlashtiring.***

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMUning 4 bosqichida o'z fikrlarini yozma bayon etadi. So'ngra tinglovchilar kichik guruhlariga ajratiladi va guruhlariga FSMU yozilgan katta qog'oz beriladi. Kichik guruhda har bir tinglovchi o'zining yozgan javobini o'qib tanishtiradi, so'ngra guruh azolari birgalashib, muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

### “SWOT-TAHLIL” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S-(strength) kuchli tomonlari</b>	<b>W- (weaknes) kuchsiz tomonlari</b>
<b>O- (opportunitu) to'siqlar</b>	<b>D- (tnreat) imkoniyatlar</b>

**Namuna:** O'zingiz faoliyat olib borayotgan pedagogik jamoa bo'yicha SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

---

S - Pedagogik jamoaning kuchli tomonlari	W- Pedagogik jamoaning kuchsiz tomonlari
•	•
•	•
•	•

---

O- Pedagogik jamoaning imkoniyatlari	T - Pedagogik jamoaning to‘siqlari
•	•
•	•
•	•

---

### **“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” metodi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.





## NAZARIY MATERIALLAR

## 1-MAVZU.

### PEDAGOG KADRLARNING UMUMKASBIY VA KASBIY KOMPETENSIYALARI

#### **Reja:**

**1.1. Kasbiy faoliyat davomida kompetentlikning ahamiyati**

**1.2. Pedagog kadrlarning kompetensiyalari**

**Tayanch iboralar:** kompetensiya, pedagogning umumkasbiy kompetensiyalari, kompetensiya turlari, kasbiy kompetensiya, tayanch kompetensiya.

#### **1.1. Kasbiy faoliyat davomida kompetentlikning ahamiyati**

**Kompetentlik** – aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.

**Kompetentlik** – (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish tushuniladi.

Shu bilan birga Pedagogika ensiklopediyasida “kompetentlik” atamasiga quyidagicha izoh berilgan: “Kompetentlik – 1) ma’lum holat hususida to’g’ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo’lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohadagi saviyasi; 2) pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalana olishi, o’ziga va o’z ishiga nisbatan talabchanligi, Kasb-hunar maktablari, oila va mahalla hamkorligini yo’lga qo’ya olishi, o’z ishining ustasi bo’lgan, sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o’zini o’zi rivojlantiruvchi hamda o’z qobiliyati va imkoniyatlarini to’la ishga sola oladigan pedagog layoqati.”

“Ijtimoiy psixologiya” va “ijtimoiy pedagogika” fanlariga daxldor so’nggi yillarda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, “kompetentlik nazariyasi”, asosan, **to’rt bosqichli** jarayonni, ya’ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o’tish jarayonini o’z ichiga qamrab oladi. Biz buni batafsilroq tarzda psixologik nuqtai nazardan

bayon etadigan bo'lsak quyidagicha tahlilning guvohi bo'lamiz:

**Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi:** Sohaning etakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs **“Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman”** darajasida turadi. Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo'qdir. SHuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga bo'lgan zaruriyatni his qilmaydi. SHu o'rinda yana bir misol: ilk go'daklik chog'larida bola engil mashinada bir erdan boshqa erga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o'zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o'zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi.

**Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi:** Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug'ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich **“Men bilmasligim haqida bilaman”** deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o'smir, biron-bir kishidan o'zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to'g'ri keladi va bunda o'zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda “o'z ustida” qayg'uradi.

**Anglangan kompetentlik bosqichi:** Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o'qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o'qituvchining xatti-harakatlarini o'zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki **“nima bilishi haqida biladi”**. Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvoohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yo'lga chiqishdan oldin mashinani to'g'ri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o'ziga-o'zi quyidagilarni pichirlaydi yoki xayolidan o'tkazadi: “Hozir yonni yoki orqani ko'rsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli to'siqqa

signal beraman, borishim zarur bo'lgan ob'ektni joylashishi ko'ra yoki harakat traektoriyasi bo'yicha o'ngga-chapga burilaman va hokazo".

////////////////////////////////////  
**Anglanmagan kompetentlik bosqichi:** Anglanmagan kompetentlikda  
////////////////////////////////////

shaxs o'zidagi mavjud bilim va ko'nikmalarni shu darajada ko'p qo'llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o'ylamasdan bosadigan bo'ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo'lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: **"Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman"**, – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni o'rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma'lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning "qoningiz va jisingizga" singib ketgan bo'ladi.

Demak, yuqoridagi to'rt bosqichli nazariyada ilgari surilgan g'oyaga asoslanadigan bo'lsak, **kompetentlik** – ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun, ya'ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish(o'qish)-faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog'liq bo'ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo'lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik ta'lim muassasasi jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Ta'lim muassasasi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisilari pedagogik jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo'lib, bular jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

**Kasbiy kompetentlik** –kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib, muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetentligiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

- pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
- maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;
- o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda

bo'lish;

- o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib

borish;

- o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;

- pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, o'quvchilar orasida shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'ya olish;

- murakkab va muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchini ruhlantirib borishi;

- jismoniy tarbiya o'qituvchisi va o'quvchi orasidagi qayta aloqani to'g'ri ta'minlay olish;

- ta'limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg'ulot jarayonida qo'llay olishi.

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga kelinadi. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, m'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy hususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning sport faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida

muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

**Kasbiy kompetentlik sifatleri.** Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

3. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

4. **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, travma olish holatlari, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

5. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Mashhur biznes-murabbiy, SBA (*Student of Business Administration*) universiteti asoschisi Vladislav Shipilovning “Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish darajalari”ga ko'ra ularga mos hususiyatlarini tahlil qilgan.

DARAJA	DARAJA TASNIFI
<b>5. Mohir (professional) mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning oliy (eng yuqori) darajasi)	O'z sohasida yuqori darajadagi professional, ekspert (avtoritet) darajasiga erishgan mutaxassis. Muayyan yo'nalish (kasb, ixtisoslik) bo'yicha malakalarni rivojlantirish, yanada takomillashtirish, boshqalarga o'rgatish kompetensiyalariga ega shaxs
<b>4. Ilg'or mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning yuqori darajasi)	Yuqori malakaga ega bo'lgan, o'z ko'nikmalarni murakkab jarayonlar va nostandart holatlarda ham to'g'ri qo'llash tajribasiga ega mutaxassis
<b>3. Tajribali mutaxassis</b> (Mahoratni rivojlantirishning o'rta darajasi)	O'z sohasi bo'yicha yetarli bilim va malakaga, tajribaga ega bo'lgan va bu bilimlarini amaliyotga samarali qo'llay oluvchi mutaxassis
<b>2. Rivojlanayotgan mutaxassis</b>	Muayyan malaka va ko'nikmalarni egallash jarayonidagi shaxs. Uning ahamiyati va mohiyatini



## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

(Mahoratni rivojlantirishning past darajasi)	anglagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilayotgan, ammo uni amaliyotda barqaror qo'llay olmayotgan shaxs
<b>1. Malakasiz daraja</b> (Mahoratni rivojlantirishning eng past darajasi)	Malaka darajasiga ega bo'lmagan, uning ahamiyati va mohiyatini tushunmagan, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmayotgan shaxs

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik kompetentligi yo'nalishida qo'yilayotgan eng asosiy talablaridan biri ona-yurtga muhabbat va sadoqat, Vatan va vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish, o'quvchilarda milliy an'analar va o'yinlar, urf-odatlar va qadriyatlar, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo'nalishidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarida sport bilan bog'lagan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni bajarish yo'nalishidagi tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning shakllanganlik zaruriyatlarini o'z ichiga oladi.

### 1.2. Pedagog kadrlarning kompetentsiyalari

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim va tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib echish mumkinligini unutmashimiz lozim.

2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi - ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, u 11 bob va 75 ta moddadan tashkil topgan.

Ta'lim to'g'risidagi” Qonunning **7-modda**si “Ta'lim turlari” deb nomlanib, unda quyidagi ta'lim turlari ko'rsatilgan:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya
2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim
3. Professional ta'lim
4. Oliy ta'lim
5. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim
6. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
7. Maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim turlarining barchasida pedagoglar faoliyat olib boradi. Shu bois, “Ta'lim to'g'risidagi” Qonunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi belgilab berilgan.

“Ta'lim to'g'risidagi” Qonunning “Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” nomli 5-bobining **44-modda**si: “Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega” deb belgilangan.

Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetensiyaga ega bo'lishi muhimdir.

“**Kompetensiya**” tushunchasi lotincha **competere** degan so'zdan olingan bo'lib, “*loyiq*”, “*mos kelmoq*” ma'nosini beradi.

Pedagogika ensiklopediyasida “kompetensiya” so'ziga quyidagicha izoh berilgan: “Kompetensiya (lotincha *competo-erishyapman*, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribalar; 3) shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi”.

**Kompetensiya** – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo'llay olish qobiliyati va layoqati.

Umuman olganda, kompetensiya **muayyan shaxs** doirasida o'rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo'lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga

chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo'lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to'lmay qolgan "bo'shliq"larni to'ldirishda asqotadi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni quyuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda "*tayanch kompetensiya*"lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos harakter kasb etadi.

Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida kasb-hunar maktablari bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy kasb-hunar maktablari o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi nafaqat sport turlari bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma va malakalari shakllantiruvchi ta'lim beruvchi, shu bilan birga u tarbiyachi hamdir. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi sport turlarini o'rgatish orqali o'quvchini tarbiyalaydi. U o'quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish orqali ularni ham jismonan sog'lom, ham ma'nan yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi va ularda mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, intizomlilik va shu kabi boshqa sifatlarni ham shakllantiradi.

Shu o'rinda buyuk mutafakkirimiz Abduraxmon Jomiyning quyidagi fikrlarini havola etmoqchimiz: ***"Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi"***.

Ayrim jismoniy tarbiya fani o'qituvchisilari pedagogik kompetensiyaga

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

ega bo'lishi uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik kompetensiyani o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Kompetensiyani 4 turga bo'lish mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus.

### **Shaxsiy kompetensiya:**

- insonparvarlik;
- bolalarni sevishi va mehribonlik;
- adolatli bo'lish;
- talabchanlik;
- bag'rikenglik;
- mas'uliyatlilik va h.k.

### **Kasbiy kompetensiya:**

- ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- jismoniy tarbiya darsi jarayonini boshqarish;
- turli musobaqalar tashkil etish;
- o'quvchilar bilimi va yutuqlarini ob'ektiv baholash;
- o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;

- axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o'z bilimini doimiy takomillashtirish.

**Umummadaniy kompetensiya:**

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo'lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va h.k.

**Maxsus kompetensiya:**

- jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasini bilish;
- jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish bosqichlarini bilish;
- sport turlarining texnikasini o'quvchilarga o'rgata olish;
- sport turlarining taktikasini o'rgatish va h.k.

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik hususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun ta'limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi o'ta muhim jarayondir.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. “Kompetentsiya” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nima ?
2. Kompetentsiyaga berilgan ta‘rifni toping?
3. “Kompetentlik” deganda nima tushuniladi?
4. “Kasbiy kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytiladi?
5. Kasbiy kompetentlik qanday sifatlardan iborat?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta‘limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Djurayev R. X., Tolipov O‘. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zPFITI. - 2008. 125 b.
4. Golish L. V. Ta‘limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
5. Golish L.V. Ta‘lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
6. Golish L.V. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.

## 2-MAVZU.

### O‘QUV – ME‘YORIY HUJJATLAR ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

#### **Reja:**

*2.1. Ta‘lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari*

*2.2. O‘quv – me‘yoriy hujjatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish*

*Tayanch iboralar: ta‘lim, tarbiya, davlat ta‘lim standartlari, o‘quv reja, o‘quv dastur, mashg‘ulot.*

#### **2.1. Ta‘lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari**

Ta‘lim-tarbiya jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta‘lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e‘tibor qarataylik. Ta‘limda pedagogning boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Bularning barchasi pedagogning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida pedagog ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi. Pedagogning faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma malaka hamda shaxsiy fazilatlarini egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos hususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

*Ta'lim berish* – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish jarayoni, kishini hayotga hamda mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq bo'lib, ma'lumot ularning natijasidir.

Ishlab chiqarish nuqtai nazardan olib qaraganda **jarayon** - obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etib, uning holati, hususiyati, shakli kabilarni


## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

o'zgartirishni anglatadi. Agar ta'lim-tarbiya pedagogik qonuniyatlarga asoslanishini hisobga olsak, **ta'lim-tarbiya jarayoni** - ta'lim oluvchilar his-tuyg'ulari, ongi, harakteri kabilarga maqsadga muvofiq ta'sir etib, ularda bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar shakllantirish tizimi ekanligi kelib chiqadi.


**Tizim** – o'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan qismlardan tashkil topgan tuzilma.

Tizimni o'rganish uchun tizimli yondashuvdan foydalaniladi. Tizimli yondashuvga ko'ra: ta'lim tarbiya ishtirokchilari, maqsadi, mazmuni, amalga oshirish metodlari, uni tashkil etish shakllari, vositalari hamda natijalari yaxlit jarayonning tashkil etuvchi qism (element)lari sifatida e'tirof etiladi.

Zikr etilganlarga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoni quyidagi savollarga javob beradi:







1-rasm. Ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari

### **Kimlar?: Ishtirokchilar**

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilardir. Ta'lim beruvchining bilimi, ko'nikma, malaka, shaxsiy fazilatlari ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlariga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim beruvchi tegishli ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarligi mavjud va yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarni o'rgatishdir.

**O'rgatish** - ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati. O'rgatish – ijtimoiy xulq-atvorni oddiy shaklga aylantirish maqsadida ta'lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. O'rgatish ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

**O'rgatish** – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni.

Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibi sifatida ta'lim oluvchi ham ishtirok etadi. Ta'lim oluvchilarning vazifasi esa o'rganishdir.

**O'rganish** - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq – atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlarining o'zgarishi.

### **Nima uchun?: Ta'lim maqsadlari**

**Maqsad** – qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Maqsadlar ta'limni boshqaruv faoliyatiga qarab, aynan bir oddiy ta'limiy masala yechimiga qaralishidan tortib, uzluksiz ta'lim tizimidagi turli faoliyatlarga belgilanib berilaveradi.

**Ta'lim maqsadlari** - ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Har qanday dars aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonidir. Ta'lim maqsadlari aniq bo'lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularni didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin.

Har bir darsning maqsadlari oldindan aniqlanishi lozim. Aniqlangan ta'lim maqsadlari, dars mazmuni bo'yicha qaysi nazariy materiallarni tanlash, uni o'tkazish bo'yicha qanday metodik va didaktik vositalardan foydalanish lozimligini belgilab beradi. Maqsadlar yozma ravishda dars rejasiga kiritiladi va maqsad erishilgan-erishilmaganligi baholash yordamida tekshiriladi va mustahkamlanadi.

### **Nimani?: Ta'lim mazmuni**

**Ta'lim mazmuni** – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va характери.

Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni inobatga olishi kerak.

### **Qanday?: Ta'lim metodlari**

Agar maqsadlar va mazmunlar aniq bo'lsa, aynan shunday metodlar tanlab olinishi kerakki, ular shu maqsad va mazmunlarni o'lchanadigan natijalarga aylantira olishlari lozim.

*Metod* (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yo'l" degan ma'noni anglatadi) maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

*Ta'lim metodi* – bu ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Ta'lim metodi pedagog bilan ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

Ta'lim metodlari o'quv materialini bayon qilishga va uni ta'lim oluvchilar yaxshi bilim olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari pedagogni ta'lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usullariga bog'liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga pedagogning ish usullari va ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Metod tanlashda albatta ayrim o'quv predmetlarini o'ziga xos xususiyatlariga amal qilinmog'i lozim. Shu bilan birga ta'lim jarayonida ko'pchilik o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy ta'lim metodlari bilan birga ayrim o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilgan o'ziga xos xususiy metodlar va metodik yondashuvlar ham bor.

Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar faoliyatiga ko'ra tavsiflangan "faol", "nofaol" va "interfaol metodlar" deb atalgan metodlar pedagog tomonidan tanlab olinadi va qo'llanadi.

### **Qay tarzda?: Ta'limni tashkil etish shakllari**

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Yuqorida aytilgan hamma narsalar vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi kerak. Chunki har bir dars uchun aniq vaqt me'yorlari bor va aynan shu vaqt doirasida o'quv maqsadlarga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki unumli tashkillashtirish ham kerak. Vaqt davri, vaqt davomi va o'quv joyi – tashkillashtirish jarayonida belgilanadi. O'rgatish va o'rganishni tashkil qilishning xilma-xil shakllari mavjud.

Shakl - o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

**Ta'limning tashkiliy shakli** - belgilangan tartibda sodir bo'ladigan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir.

Ta'limning tashkiliy shakllarini quyidagicha tasniflash mumkin:



## 2-rasm. Ta'limning tashkiliy shakllari

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'lim oluvchilar soniga ko'ra tashkillashtirish shakllari:

**1. Jamoaviy ish (frontal)** - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

**2. Guruhlarda** - turli guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish. Bunda kichik guruhlarda, juftlikda va guruhlararo ishlar tashkil etilishi mumkin.

**3. Yakka tartibda (individual)** - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

Guruhlarni shakllantirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- **majburiy;**
- **ixtiyoriy;**
- **tasodifiy.**

### Nimalar yordamida?: Ta'lim vositalari (Sharoitlar)

**Ta'lim vositalari** - o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilardir.

Sharoitlar deganda, birinchi navbatda moddiy-texnik shart-sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, moddiy-texnik sharoitlar, ya'ni binolar, sinfxonalar, ularning jihozlanganlik darajasi va hokazo, chunki ular ma'lum sifat standartlariga javob berishi kerak.

Boshqa tomondan esa, o'quv vositalari tushuniladi, chunki ular o'quv jarayondagi bilimlarni o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quv maqsadlariga mo'ljallangan ko'plab o'quv vositalari mavjud. Lekin gap vositalarning ko'pligida emas, balki muayan o'quv maqsadiga erishish uchun ma'qul keladigan vositalarni tanlab olishdadir. Agar tayyor materiallar bor bo'lsa,

ularning orasidan to'g'ri keladiganlari tanlab olinadi. Agar tayyor o'quv-didaktik materiallar yoki o'quv vositalar bo'lmasa, u holda ularni tayyorlash kerak bo'ladi.

**Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:**


- ta'lim beruvchi uchun;
- ta'lim oluvchi uchun;
- dars o'tkazish uchun.

Ta'lim beruvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar, uslubiy ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

Ta'lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, sport inventarlari, topshiriq varaqalari va hokazolar.

Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, texnik vositalar, real vositalar.

Ba'zi hollarda ta'lim oluvchi uchun mo'ljallangan ta'lim vositasi ta'lim beruvchi uchun ham, dars o'tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi kerak. Bundan tashqari ta'lim vositalarining xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar.



### 3-rasm. Ta'lim vositalarining turlari

#### Nimalarga erishiladi?: Ta'lim natijalari

*Natija* – dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

*Natijalar* (mahsullar)–o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Natijani o'zlashtirish – olingan natijalarni amaliy o'zlashtirilishiga tayyorlash jarayonida iboratdir, ya'ni, iste'mol uchun tayyorlash. Bunga tadqiqotchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim tuzatishlar kiritish har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Darsning oxirida natijalarga erishilgan-erishilmaganligi tekshirilishi kerak. Buning uchun baholash vositalari, metodlari va mezonlari belgilanishi lozim. Buning imkoniyatlari–mashqlar, topshiriqlar, og'zaki va yozma testlar. Ular ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Bir tomondan, bu–ta'lim oluvchilar kerakli bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini o'zlashtirib olganliklarining nazorati, ya'ni “Ta'lim oluvchilar natijaga erishishdimi?” degan savolga javob berilishi kerak. Boshqa tomondan esa, pedagog uchun o'z-o'zini hamda darsning sifati qanday bo'lganligi tekshirish, ya'ni “Men oldinga qo'ygan maqsadlarimga erishdimmi?” degan savolga javob berilishi kerak. Ikkala holda ham o'lchanadigan natijalar bo'lishi muhimdir.

#### **2.2. O'quv – me'yoriy hujjatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish**

Kishilar (inson) tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta'lim-tarbiya ishi ham ushbu qonuniyatga to'liq bo'ysunadi. Demak, ta'lim-tarbiya ishi ma'lum me'yorlar doirasida amal qiladi. Bu me'yorlarsiz ta'lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon va makon hamda natijalar tekisligida samarasiz bo'ladi. Aslini olganda, maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlari aniq

maqsadni ko‘zlab, reja asosida kechadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 1-bob 3-moddasida “**Davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui**” deb ta’rif berilgan.

**Davlat ta’lim standartlari** (DTS) ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta’lim mazmunini o‘zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, nizomlar, o‘quv rejasi va boshqa meyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Standart qanday ma’noni anglatadi?

**Standart** – muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

**Davlat ta’lim standartlari (DTS)** – – 1) bu davlatning ta’lim darajasiga qo‘ygan meyori sifatida qabul qilinadigan asosiy parametrlar tizimi bo‘lib, muayyan shaxsning ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni anglatadi; 2) ta’limning zarur, yetarli darajasi va o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir.

**Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim hamda professional ta’limning o‘quv rejaları va o‘quv dasturlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarini belgilaydi.



## O‘quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta’lim standartlarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta’lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi.

Professional ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. O‘quv rejalari va o‘quv dasturlari tegishli ta’lim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi.

Tegishli davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlaridagi o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Kasbga oid fanlarning o‘quv dasturlari ta’lim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan.

Ta’lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llaniladi.

Professional ta’limga doir o‘quv rejalari davlat ta’lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiiy, gumanitar va qo‘shimcha fanlardan shakllantiriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi, asosiy hujjat o‘quv rejalari hisoblanadi. **O‘quv rejasi** ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o‘quv fanlarini alohida o‘rganish sur‘atini ta’minlovchi hujjatdir. O‘quv rejasi - har bir yo‘nalish uchun alohida tuzilib,

vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejalarini mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;
- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- ta'lim - tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

**O'quv dasturi** – o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

**O'quv dasturi** - shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladi. O'quv predmeti - ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir. Ta'lim standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o'zaro uzviylikni ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish o'qituvchilarga murakkab vazifalarni qo'yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

O'quv-dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o'qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.


**Darslik** – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Har bir ta'lim turning maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa hususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy tajriba va sinov

mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi.

**O'quv qo'llanma** – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan nashr.

Uslubiy qo'llanmalar ta'lim muassasasining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Darsliklar qo'lyozmasi tayyor bo'lgandan keyin ichki va tashqi taqrizdan o'tkaziladi, ta'lim muassasasidagi ekspert komissiyasi ko'rigidan o'tib, tegishli xulosa olgandan so'ng mutasaddi kafedra yig'ilishidan o'tadi, keyin ta'lim muassasi ilmiy-uslubiy kengashidan o'tadi va nashrga tavsiya etish haqidagi taklifni Vazirlikning Muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etadi. Muvofiqlashtiruvchi Kengash qoshidagi ekspertlar ko'rigidan ijobiy o'tgandan so'ng mazkur Kengashning nashr etishga ruxsati haqidagi qarorini oladi.



## **AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlari?
2. O'quv – me'yoriy hujjatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish?
3. *Ta'lim mazmuni?*
4. Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan неча турга бўлинади?
5. O'quv dasturi бy-?
6. Ta'limning tashkiliy shakllari бy-?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2012.-110 b.
2. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
4. Djurayev R. X., Tolipov O'. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI. - 2008. 125 b.
5. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
6. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
7. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.

O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik  
**AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI**

**3 - MAVZU.**

**O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA JAMOANING AHAMIYATI**

**Reja:**

*3.1. Pedagogik jamoa tushunchasi.*

*3.2. Pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlar.*

*Tayanch iboralar: jamoaviylik, jamoa a'zolari, jamoa a'zosi, Pedagogik jamoa, boshqarish .*

**3.1. Pedagogik jamoa tushunchasi**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida muassasa va tashkilotlar faoliyatining turg'un va samarali bo'lishining asosiy omili shakllanib, rivojlanib borayotgan mehnat jamoalari hisoblanadi. Mazkur jarayon bevosita ta'lim sohasiga ham taalluqlidir. Madaniy-ijodiy faoliyat jarayonida pedagogik jamoa rivojlanish jarayonining hususiyati va mohiyatini bilish uchun "pedagogik jamoa" tushunchasining mazmunini o'rganish, loyihaviy faoliyatning mavjud turlarini tahlil etish zarur. Hozirgi davrda "pedagogik jamoa" tushunchasini aniqlashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. "Pedagogik jamoa" tushunchasiga oid mavjud yondashuvlar va turli fikrlarni tahlil etish bizga mazkur tushunchaning ishchi variantini shakllantirish imkonini berdi.

"**Jamoa**" so'zi arabcha "jam'o" so'zidan olingan bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi.

**Jamoa** – ijtimoiy foydali faoliyat asosida jipslashgan, umumiy faoliyatga ega, bir-birlarini yaxshi biladigan odamlar guruhi.

**Pedagogik jamoa** - ta'lim muassasasi pedagoglarining o'z-o'zini boshqarishga asoslangan hamkorligi hisoblanib, u o'z faoliyatini birgalikda qabul qilingan yoki ishlab chiqilgan yagona maqsadni amalga oshirishga

qaratadi hamda o'zaro aloqador vazifadosh va maslakdosh guruh hamda alohida individlardan tashkil topadi.

Pedagogik jamoaning asosiy belgilari ichki, ishonchli xotirjamlikning namoyon bo'lishi, doimiy tetiklik, harakat qilishga tayyorlik muhim hisoblanadi. Jamoa har bir a'zorida o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usining mavjudligi, o'z jamoasi bilan faxrlanish tuyg'usi bo'lishi lozim. Munosabatlarning rasmiy tuzilmasi - bu tashqaridan, jamiyat tomonidan berilgan va ushbu jamoa faoliyat ko'rsatishi zarur bo'lgan holatlar (pozitsiya) sistemasidir.

Norasmiy shaxslararo munosabatlar sistemasida holatlar har bir o'quvchining o'ziga xosligi va ushbu sinfning xususiyatlari bilan belgilanadi. Boshlangich o'quv maskanidayoq bolalarning sinf jamoasida muayyan, ularni jalb etuvchi holat (pozitsiya) ni, ya'ni yetakchi, eng yaxshi o'quvchi, eng yaxshi sportchi va hokazo holatlarni egallashga intilish kuzatiladi. Ijtimoiy holat ikki o'lchov: shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va atrofdagilarning ijtimoiy umidi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy xulq-atvor - bu real hatti-harakatlar bo'lib, ular tufayli odam o'zini istalgan rolda qaror toptiradi. Ijtimoiy umidlar - bu atrofdagilarning ushbu odam holatiga munosabatlaridir. Agar kimdir o'zini mazkur holatda qaror toptirgan bo'lsa, atrofdagilar uni bu holatga "bog'lab qo'ygandek" bo'ladilar. O'quvchilar yuqori sinfga o'tgani sayin o'z ijtimoiy holatlarini odatda bilibgina qolmasdan, shu bilan birga ko'pincha ularni o'zgartirishga ham intiladilar. To'g'ri, tarkib topgan ijtimoiy umidlar bunga xalaqit beradi. Ijtimoiy umidlar barqaror bo'lganligi uchun o'smir vaqtini o'tkazib yuborgan holatni o'quvchining o'zi o'zgartirishi qiyin bo'ladi, bu yerda pedagogning yordami kerak. Pedagogik jamoa ichki holatlari orasida peshqadam, yetakchining holati alohida o'rin turadi. Bu guruh oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarili bilan bog'liqdir. Aynan peshqadamlar jamoaning normalari va qadriyatlarini belgilaydi. Peshqadam o'z holatining obro'ligi bilan o'z fikrini o'tkazish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bolalar peshqadam o'quvchilarga ishonganilari uchun ham ularga taqlid qiladilar.

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Jamoadagi psixologik muhit ko'p jihatdan kim peshqadamligiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik jamoaning shaxsga ta'siri samaradorligi shaxsning jamoadagi kayfiyati bilan belgilanadi. Bunga quyidagilar kiradi: shaxsning faoliyati, o'zaro munosabatlar, rahbarlikdan qoniqish, shaxsning mazkur jamoadagi himoyalanganligi, uning ichki xotirjamligi.

Pedagogik jamoani rivojlanish hususiyatiga ega bo'lgan tizim sifatida o'rgangan mutaxassislar fikriga qo'shilgan holda, ta'kidlash joizki, pedagogik jamoaning takomillashuvi avvalo pedagoglarning jamoaviy faoliyati natijalarining sifat jihatidan o'sishiga bog'liq. Mazkur omil ayniqsa hozirgi ta'lim islohoti sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim muassasasida madaniy-ijodiy muhitni yaratishning asosiy shartlaridan biri loyiha metodini qo'llashda o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, pedagoglar va o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini o'rganish, uning o'quv-tarbiya jarayoniga amaliy tatbiqini tahlil etish tadqiqot yo'nalishlarimizdan biri bo'lib hisoblandi. Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlili hamda pedagogik jamoaning amaliy faoliyatini tahlil etish natijasida biz pedagogik jamoa rivojlanishining asosiy omillarini aniqlashga hamda ta'lim muassasasi jamoasi faoliyatining barcha turlarini o'zaro integrativ aloqadorlikda tasniflashga muvaffaq bo'ldik.

Pedagogik jamoani tashkil etishda madaniy-ijodiy faoliyat, garchi yagona yetakchi faoliyat sifatida e'tirof etilmasa ham, asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Madaniy-ijodiy faoliyat asosiy faoliyat turlarining umumiy qatorida bo'lmasada, subyektiv faoliyat turi sifatida alohida o'ringa ega. Bundan tashqari, fikrimizcha, u pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyati natijasi o'laroq muayyan yutuqlarga erishishning bir qadar samarali va universal vositasi hisoblanadi. Pedagogik jamoaning madaniy-ijodiy faoliyati mazmunini ta'lim muassasasini o'rab turgan muhitni ijodiy jihatdan tubdan o'zgartirish, uning pedagoglari va tarbiyachilarini madaniy-ijodiy faoliyatga jalb etish tashkil qiladi. Madaniy-ijodiy faoliyat natijasida, xususan, ta'lim muassasalari va



ularning pedagogik jamoalarida ham noyob, yagona, avval mavjud bo'lmagan tajriba yaratiladi.

Agar pedagogik jamoaning tizimli, integrativ faoliyati natijasi hisoblangan tarbiya bola tabiatiga pedagogik shakl, usul va vositalar orqali ta'sir ko'rsatib, uni o'zgartirishdan iborat bo'lsa, pedagogik jamoaning madaniy-ijodiy faoliyati natijasini ta'lim muassasasining real mavjud bo'lgan muammolarini adekvat hal qilish yoki aniq ish yo'nalishini amalga oshirish; mavjud holatini yaxshilash va boshqa faoliyat turlarini takomillashtirish; jamoada avval mavjud bo'lmagan tajribani vujudga keltirish kabilar tashkil etadi. Biz pedagogik jamoaning madaniy-ijodiy faoliyatini avvaldan rejalashtirilgan hamkorlikdagi faoliyat natijalarining bir qadar samarali amalga oshirilishining vositasi deb hisoblaymiz. Ayni vaqtda, u ayni ma'noda bu xil natijaning shakllanishi va rivojlanishining omili sanaladi.

Mazkur amaliy tadqiqotning ilmiy yangiligi shunda ifodalanadiki, unda pedagogik jamoa va ta'lim jarayoni har bir ishtirokchisining o'z-o'zini rivojlantirishi uchun, bevosita loyiha metodini qo'llagan holda, madaniy-ijodiy muhit yaratish jarayoni tadqiq etiladi, shuningdek, umumta'lim Kasb-hunar maktablarilarida madaniy-ijodiy muhitni shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish hamda pedagogik jamoaning o'z-o'zini takomillashtirishi muammosini hal etishga qaratilgan qo'llanma tayyorlash nazarda tutiladi, bu esa ta'lim jarayoni ishtirokchilarini intellektual-ijodiy rivojlantirish uchun ko'rsatma bo'lib hisoblanib, pedagogik jamoani o'z-o'zini takomillashtirish sari yo'llaydi.

Yuqorida qayd etilgan umumiy tushunchalarga asoslanib, biz madaniy-ijodiy faoliyat asnosida pedagogik jamoaning shakllanish jarayonini uning tarkibi va tuzilishida yangi sifat o'zgarishlariga olib keluvchi, yo'naltirilgan, qaytarilmas, qonuniy boshqariladigan, o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida e'tirof etamiz, zero, qayd etilganlar natijasida pedagogik jamoa yangi natijalarga erishish layoqatiga ega bo'ladi. Pedagogik jamoa o'z tarkibidagi pedagoglar guruhi yoki har bir pedagogning o'ziga xos jihatlari sababli o'zgarish hususiyatiga ega. Bu hususiyat uning pedagogik jamoa tarkibida turli tizimosti

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

munosabatlarni muvofiqlashtiruvchilik (faoliyatni sinxronlash, jipslashtirish) hususiyatlarida yaqqol ifodalanadi. Natijada o'zaro hamkorlik, do'stona munosabat, bir-birining kechinmalarini anglash vaziyati vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, tashkiliy tizimlashgan makon ichida tizimosti munosabatlarning jipslashuvi, o'ziga xos "tizimli ruh", sinergetik effekt yuzaga keladi.

Pedagogik jamoa faoliyati (jarayoni yoki mazmuniga ko'ra) qanday tashkil etilganligi uning qay tarzda shakllangani va qanchalik rivojlanganiga bevosita bog'liqdir. Ustiga-ustak madaniy-ijodiy faoliyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning aniq bir ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining shakllanishiga ta'sir etish imkoniyati shunchalik katta bo'ladi. Ayni vaqtda, pedagogik jamoaning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, unda pedagogik jamoa, alohida pedagoglar va umuman ta'lim muassasasining doimiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi madaniy-ijodiy faoliyat nisbatan samaraliroq tarzda tashkil qilinadi.

### 3.2. Pedagogik jamoadagi o'zaro munosabatlar

Jamoa shaxs va jamiyatni bog'lab turuvchi, jamiyatning bir bo'laki bo'lib, unda shaxs rivojlanadi va ijtimoiy talablari qondiriladi. Shunday qilib A.Y. Kolominskiyning ta'kidlashicha, mehnat jamoasi shaxs faoliyatini asosiy jabxasi hisoblanib, uning mavjud internativ tavsifnomasi ijtimoiy psixologik muhit hisoblanadi. Ijtimoiy psixologik muhitni rus va xorij psixologiyasida o'rganish guruhiy munosabatlarning yaratilishi va rivojlanishining umumiy metodologik tamoillariga asoslangan. Ammo uni tarixiy taraqqiyotida katta farq ko'zga tashlanadi. Shu tariqa xorij psixologiyasida oraliq psixologik muammolarga katta ahamiyat qaratilgan. Ularning natijasida individ qabul qilinayotgan tashkiliy va individual hususiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni kutish qiziqishlar, xulq atvor va boshqa tizimlarga o'tkazadi. Rus psixologiyasida esa ichki guruhiy aloqalarning tuzilishini va muhitni jamoaning rivojlanishi jarayonlari bilan birgalikda ajralmas va dinamikasida murakkab umumiy tizim sifatida o'rganish afzal ko'riladi. Shunga ko'ra, faqatgina

shunday muhit qulay xisoblanishi mumkinki, jamoaning jamiyat maqsadlariga mos kelishiga erishishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ijtimoiy psixologik muhitni o'rganishga taalluqli bo'lgan ko'plab masalalar bo'yicha tadqiqotchilar o'rtasida yagona ta'rif mavjud emas. Ijtimoiy psixologik muhit tushunchasi bilan bir qatorda quyidagi tushunchalar ham qo'llaniladi: axloqiy psixologik muhit, psixologik kayfiyat, psixologik moslik, ijtimoiy mikromuhit, jamoa psixologiyasi va boshqalar. Atamalar o'rtasidagi farqlar bu jarayonning mazmunini tushunish bilan kuzatiladi.

Sh.Byumler guruhning psixik hususiyatlariga quyidagilarni kiritadi:

- yakka holda individlar bajaradigan rollarning aniqligi hamda guruh a'zolarining o'zaro munosabati, ta'sirisiz guruh mavjud bo'lmaydi;
- boshqalarga ta'sir ko'rsatuvchi liderlarning asoslanganligi;
- faoliyat va tashkilotlarning maqsadlarini umumiyligi;
- guruh a'zolarida «biz» hissining mavjudligi hamda guruhning birligi, xamjixatligi.

Rus ijtimoiy psixologiyasida «psixologik muhit» atamasi ilk bora N.S. Mansurov tomonidan qo'llanilgan. Uning tadqiqotlari ishlab chiqarish jamoalarini o'rganishga qaratilgan.

Ijtimoiy psixologik muhit tarkibini V.M. Shepel birinchilardan bo'lib asoslab bergan. Uning fikricha psixologik muhit, bu jamoa a'zolarining simpatiyasi, harakterlari, qiziqishlari, moyilliklarini o'zaro mosligida yuzaga keladigan psixologik aloqalarning emotsional tusidir. Ijtimoiy psixologik tavsifnomasi hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ijtimoiy psixologik muhit mazmunini quyidagi psixologik jarayonlar bilan bog'laydilar:

- jamoaviy ongning holati;
- insonlarning hamkorlik hususiyatini ifodasi;
- guruhning qadriyati;
- guruhning emotsional psixologik kayfiyati;
- guruhning holati;

- guruh a'zolarining psixologik birligi;
- guruhlar va jamoalardagi o'zaro munosabatlar.

Mehnat jamoasida sog'lom ijtimoiy psixologik muhitni shakllantirish, ishlab chiqish va ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatini rivojlantirish uchun zaruriy shartlardan xisoblanadi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy psixologik muhit jamoaning ijtimoiy rivojlanish darajasini ko'rsatkichi va yanada xam ko'proq amalga oshirishga qodir bo'lgan uning psixologik manbalari xisoblanadi. Har bir alohida mehnat jamoasining ijtimoiy psixologik muhitini qulayligi darajasi jamoat, umuman davlatning ijtimoiy siyosiy, g'oyaviy muhiti bilan uzviy bog'liqdir. Guruhdagi sog'lom muhit nafaqat uning natijalariga samarali ta'sir etadi, balki insonni qayta yangilaydi hamda uning yangi imkoniyatlarini shakllantiradi va namoyon etadi.

Shaxsga jamoaning emotsional muhitini ta'siri ikkiyoqlama bo'lishi mumkin: ya'ni, stimullashtiruvchi va tormozlovchi. Insonning ijodiy tashabbuskorlik faolligi va kuchini o'rni bosuvchi ijtimoiy psixologik muhit tushunchasini mazmunini ochib beruvchi bir necha ta'riflari mavjud. Ye.S.Kuzmin tomonidan psixologik muhit tushunchasi insonlar o'rtasidagi jamoaviy kayfiyat, boshqaruv darajasi, mehnat sharoiti va hususiyatlari va bu jamoadagi xordiqni harakterini ifodalaydi deb ta'kidlagan.

B.F.Lomovning ta'kidlashicha psixologik muhit tushunchasiga shaxslararo munosabatlar tizimini tabiati bo'yicha psixologik (simpatiya, antipatiya, do'stlik), insonlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik mexanizmi (taqlid, xamdarlik, xamkorlik) o'zaro talablar tizimi, umumiy kayfiyat, xamkorlikdagi mehnat faolligini umumiy uslubi, jamoaning intellektual, emotsional va irodaviy jarayonlarining birligidir. V.M. Shepel birinchilardan bo'lib, ijtimoiy psixologik muhit tushunchasi tarkibini jamoa a'zolarining psixologik aloqalarini emotsional tusi sifatida (ularning yaqinligi, simpatiyasi, harakteri, qiziqish va moyilliklarini mosligi asosida yuzaga keluvchi) aniqlashga harakat qilgan.

U shuningdek bu tushuncha uchta muhit zonasini ajratib ko'rsatadi:

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

1. Ijtimoiy muhit, bu tashkilotda ishchilarning umumiy maqsad va vazifalarini qanchalik anglagani hamda ishchi va fuqarolarning xuquqlarini qanchalik amal qilinishi bilan belgilanadi;

2. Axloqiy muhit, bu jamoada qabul qilingan umumiy axloqiy qadriyatlari bilan belgilanadi;

3. Psixologik muhit ya'ni norasmiy muhit, bir biri bilan o'zaro aloqada bo'luvchilar o'rtasida yuzaga keladi. Shunga muvofiq, psixologik muhit, bu mikromuhit, uning ahamiyati axloqiy va ijtimoiylardan kattadir.

R.X. Shakurov psixologik muhit tushunchasini ikki tomonlama jixatini ko'radi. Psixologik jixati guruhning emotsional, irodaviy, intellektual holat va hususiyatlarida ochib beradi. Ijtimoiy psixologik muhit guruh psixologiyasini uning umumiylikini saqlash va insonlarni mustaqil birikishini funksiyalashuvi uchun interaktiv hususiyatlarda namoyon bo'ladi. K.K.Platonov va V.T. Kazakovlarning fikricha, ijtimoiy psixologik muhit bu guruhning shunday hususiyatiki, barqaror guruhiy kayfiyatini yuzaga keltiruvchi shaxslararo munosabatlar bilan belgilanadi va guruh o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishdagi faollik darajasiga bog'liq. B.D. Parigin ijtimoiy psixologik muhitda nafaqat uning individlarini psixik tarkibini, balki jamoa a'zolarining psixologik yo'nalganligini kuchaytirish kuchli omil ekanligini ko'radi. Jamoadagi munosabatlarning mavjud xursandchiliklarining hususiyatlari verbal muloqot vositasi sharoitidagi murojaat shakllari hisoblanadi. Murojaatning qaysidir shaklini mavjudligi buyruq yoki iltimos, taklif yoki savol, muxokama maslaxat jamoadagi munosabatlar hususiyatini tavsiflaydi va shu bilan birgalikda ijtimoiy psixologik muhitning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Munosabat miqdori va yo'nalganligi bo'yicha kommunikativ aloqalarni o'rganish, ularni tarkibi bo'yicha munosabatlarning holati haqida ko'rsatishi mumkin. Munosabatlarning nosog'lom rivojlanishi jamoadagi guruhchalarni namoyon etish bo'yicha ulardagi aloqalarning miqdorini qisqarishiga kommunikativ aloqalarni shaklan zaruriygacha o'tishiga faoliyat qatnashuvchilari orasidagi qayta aloqani buzilishiga olib kelishi mumkin.

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

Shu tariqa jamoadagi kommunikativ munosabatlar ijtimoiy psixologik muhitni empirik ko'rsatkichlari sifatida yuzaga chiqadi.

Har bir insonning mohiyati boshqa insonlar bilan aloqada namoyon bo'ladi va muloqot jarayonida jamoaviy munosabatlar shaklida amalga oshiriladi. O'zaro munosabatlar orqali inson o'zining jamoaviy qadriini anglaydi. Shu tariqa, o'z o'ziga baxo berish guruhiy samaradorlik sifatida ijtimoiy psixologik muhitni namoyon bo'lishining shakllaridan biri sifatida yuzaga keladi. Jamoaviy munosabatlar va shaxsiy aloqalar tizimida o'z holatini baholash, o'zi va boshqalardan ko'p yoki kam darajada qoniqish tuyg'usini yuzaga keltiradi. O'zaro munosabatlarni boshdan kechirish kayfiyatda namoyon bo'ladi hamda insonni o'zini o'zi psixologik his qilishini yaxshilanishi yoki yomonlashuvini keltirib chiqaradi. Taqlid, yuqtirish, singdirish, ko'ndirish jamoadagi turli kayfiyatlar xammaga o'tadi va ularning ongida namoyon bo'ladi, hamda jamoa hayotining psixologik fonini yaratadi. Psixologik o'zini o'zi his qilish va kayfiyati insonlarni psixik holatini ifodalar ekan, jamoadagi ijtimoiy psixologik muhit holatini namoyon etadi. O'z o'ziga bo'lgan baxo, o'zini o'zi his qilishi va kayfiyat, bu ijtimoiy psixologik jarayondir. Mikromuhit va insonning jamoadagi faoliyat shartlarini butun kompleksiga umumiy ta'sir reaksiyasidir. Ular ijtimoiy psixologik muhitning namoyon bo'lishini subyektiv shakli sifatida yuzaga keladi.

Mehnat jamoasining rivojlanishini turli bosqichlarda munosabatlarning emotsionalligini modalligi dinamikasi kuzatiladi. Jamoani shakllanishining birinchi bosqichida emotsional omil yetakchi rol o'ynaydi. Jamoa tuzilishining ikkinchi bosqichida kognitiv jarayonlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shuningdek har bir shaxs nafaqat emotsional muloqot obykti sifatida, balki ma'lum shaxsiy sifatlar, ijtimoiy me'yor va ustanovkalar tashuvchisi sifatida xam ifodalanadi. Mehnat jamoasining ijtimoiy psixologik muhitiga ta'sir etuvchi omillar orasida "iqlimiy inqirozlar" ijtimoiy psixologik fenomeni ajratiladi. "Iqlimiy inqiroz" jamoa faoliyati shartlarini o'zgarishi yoki inson munosabatlarning shartlari o'zgarishi natijasida kelib chiqadi va butun

jamoaning yoki uning alohida a'zolarining o'zagini his qilishiga ta'sir etadi. "Iqlimiy inqiroz" ning tarkibi, shakli, davomiyligi, emotsional toni uning ijtimoiy psixologik muhitini tavsifnomasi, jamoa a'zolarining axloqiy rivojlanish ko'rsatkichi hamda hamkorlikdagi mehnat faoliyatida insonlarning stresslarga chidamliligi darajasi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika va psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Y. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda pedagogika va psixologiyada qabul qilingan to'rtta asosiy boshqarish uslublariga harakteristika berib chiqamiz.

Bu uch uslub:

- avtoritar;
- demokratik;
- liberal ish uslublaridir.

**1. Avtoritar uslubda** o'qituvchilar o'z irodasini ta'lim oluvchilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, ta'lim oluvchilarni so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar erkinligi cheklanadi hamda faqat o'qituvchilar uzluksiz pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda ta'lim oluvchilarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari e'tiborga olirilmaydi. Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi birmuncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida ta'lim oluvchilar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini

pasayishiga sabab bo'ladi.

**2. Demokratik uslubda** o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, ular o'z faohyatini ta'lim oluvchilarga tayangan holda va ularning fikrini inobatga olish asosida, ya'ni pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashi, o'z qobiliyatlarini erkin namoyish etishlari, fikrlarini erkin bildirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish orqali ularning faolligini ta'minlashga yo'naltiradi. Pedagogik jarayonlarda sub'yekt-sub'yekt (o'qituvchi va ta'lim oluvchi) munosabatlari shakllantirish asosida barcha uchun qulay ta'limiy muhitni vujudga keltiriladi. Mazkur uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi. Uzlüksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda vaziyatlarga ko'ra boshqaruv uslublaridan oqilona foydalanishda o'qituvchilar bilan ta'lim oluvchilarda bir-biriga nisbatan ishonch, o'zaro tushunish, do'stona munosabat hamda barcha uchun qulay ta'limiy muhit vujudga keladi. O'qituvchi o'zini pedagogik jarayonning bir ishtirokchisi sifatida tutadi, uning oldida har bir ta'lim oluvchi o'zini erkin his qiladi va mustaqil va erkin fikrlaydi hamda vujudga kelgan tashabbus, g'oya va fikrlarini bemalol ifodalaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi o'qituvchilar pedagogik jarayonlardagi tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, barcha ta'lim oluvchilar bilan teng va samimiy munosabatda bo'ladi, o'z mavqei ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, ta'lim oluvchilarga erkin ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan fikrlarga to'g'ri munosabatda bo'ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda unga mos yondashuvlarni amalga oshiradi.

**3. Liberal ish uslubi** o'qituvchilarning ta'lim oluvchilarga topshiriq va maslahatlarni tavsiyalar ko'rinishida berishi, ta'lim oluvchilarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchilar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarga keng doirada mustaqillik,



### **O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik**

to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. O'z zimmasiga ma'suliyat olishni yoqtirmaydi, kelishuvchanlik asosida faoliyat ko'rsatadi, ya'ni ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarni buzmaslik uchun ularning barcha talablarini bajaradi. Bu o'z o'rnida pedagogik jarayonlarda tartibsizlik vujudga kelishiga, ta'lim oluvchilarning xatti-harakati va o'quv faoliyati yo'nalishidagi nazoratning sustlashiga, ularning jismoniy tarbiya faniga bo'lgan qiziqishlarining yo'qolishiga olib keladi, shuningdek boshqa pedagogik jarayonlarda ham ta'lim oluvchilar faolligining susayishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning muhim ahamiyat kasb etuvchi sifatlaridan biri - turli xil uslublardan foydalana olishi, ya'ni vujudga kelayotgan turli vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalana olish ko'nikmasining shakllanganligi hisoblanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik jamoa tushunchasi?
2. Pedagogik jamoadagi o‘zaro munosabatlar?
3. Liberal ish uslubi?
4. Demokratik uslubi bu?
5. Avtoritar uslubi bu?
6. Pedagogik jamoa bu?
7. Jamoa” so‘ziga berilgan ta’rifni toping?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

7. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta’limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezin” – 2022., 72b.
8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
9. Djurayev R. X., Tolipov O‘. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zPFITI. - 2008. 125 b.
10. Golish L. V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
11. Golish L.V. Ta’lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
12. Golish L.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
13. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.- 352 b.
14. Pedagogika. A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 200 b.

## JAMOAVIY LIDERLIK KOMPETENTLIGI

### **Reja:**

#### **4.1. Jamoaviy liderlik**

#### **4.2. Shaxsning liderlik sifatlarini rivojlantirish**

**Tayanch iboralar:** liderlik darajalari, jamoaviy liderlik, shaxsning liderlik xislatlari, lider, jamoa.

### **4.1. Jamoaviy liderlik**

Mutaxassis I.Mahmudovning “Boshqaruv psixologiyasi” kitobida “lider” so‘zining izohiga oid quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tadi: “Umuman olganda adabiyotda “lider” so‘zini “yetakchi” atamasi bilan almashtirish hollari ko‘p uchraydi. O‘ylashimizcha, “yetakchi” atamasi “lider”ga xos bo‘lgan psixologik tavsifni to‘la ifodalay olmaydi. “Yetakchi” so‘zi guruhga munosabat sifatida, uning a‘zolariga ta’sir o‘tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo‘lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlari borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo‘lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug‘iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo‘lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog‘liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o‘zining ilg‘orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o‘zbek tilida aynan shu ikki ibora – “peshqadam” va “yetakchi” so‘zlari majmuasi lider mohiyatini to‘la ifodalashi mumkin. Nazarimizda, “yetakchi” so‘zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo‘lgan ishtiyoqi

mavjudligidan kelib chiqadi. “Peshqadam” iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat “lider” iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati, uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi”.

Ma'lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo'linmada tan olingan obro'- e'tiborga ega bo'lgan shaxs mavjud bolib, u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi, bu o'zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi. Buni Amir Temurning “Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan fikri ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda biz bunday shaxslarni “liderlar” deb ataymiz.

**Liderlik** – (inglizcha: leader - yetakchi, boshlovchi so'zidan) – umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni.

Lider qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

Liderlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- ✓ mas'uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o'z zimmasiga olish istagi;
- ✓ shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari va manfaatlari haqida qayg'urish;
- ✓ odamlarni butunlay ixtiyoriy asosda boshqarish qobiliyati;
- ✓ xarizma va tabiiy ta'sir kuchiga ega bo'lish;
- ✓ guruh tomonidan etakchiga bo'lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;
- ✓ xatolarni tan olish qobiliyati va mag'lubiyat uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirish.

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada “lider” va “boshliq” tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim.

B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar — shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi qiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin. Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emotsional lider, guruhni ish

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi.

Kasb-hunar maktablarida o'smirlar yoshida xulqi kasb-hunar maktablari normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi. Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir. Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday hususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshashlar obro' orttirish mezonlaridandir.

## 4.2. Shaxsning liderlik sifatlarini rivojlantirish

### Lider va farosat

**Kerakli resurslar:** har bir ishtirokchi uchun 1 tadan A4 oq qog'oz va ruchka.

**Maqsad:** ishtirokchilarga o'zini anglashga yordam berish, ya'ni uning ijobiy va salbiy hislatlarini o'zi uchun ochish hamda o'z ustida ishlashga turtki berish.

**Jarayon:** Lider va Farosat so'zlari ustun shaklida yoziladi hamda lider so'zining har bir harfiga bosh harfi to'g'ri keluvchi o'zidagi ijobiy sifatini va farosat so'zining har bir harfiga bosh harfi to'g'ri keluvchi o'zidagi salbiy sifatarni yozish so'raladi. Misol uchun: lider-Layoqatli, Intiluvchan..., farosat-faromush hayol, axmoq... Barcha ishtirokchilar yozishni tugatgach ularga quyidagi so'zlar eslatib o'tiladi: "Kimki o'zidagi ma'lum hislatlarni yomonligini bilsa hamda anglasa, albatta ulardan voz kechishga, ularni cheklashga urinadi va farosatli inson bo'lib shakllanadi. Farosatli insonlar doimo hamma tomonidan qadrlanganva muvaffaqiyatga erishganlar. Yana bir tuyg'u bor, muvaffaqiyatli bo'lish, odatda lider insonlar muvaffaqiyatli bo'lishadi. Ularning muvaffaqiyati shundaki, ular o'zidagi ijobiy sifatarni bila olishgan va shu sifatarni rivojlantirib ulardan maqsadli foydalana olishganlar".

### Kometa o'yini

**Kerakli resurslar:** qo'l bilan irg'itish va ilish uchun qulay bo'lgan koptok.

**Maqsad:** jamoaviylikni shakllantirish, xotira va diqqatni oshirish, fikrlash rivojlantirish.

**Jarayon:** ishtirokchilar aylana shaklida turib olishadi va bir kishi koptokni olib ixtiyoriy ishtirokchiga otadi va u boshqasiga, bunda shart shuki, koptoqni bir marta qabul qilgan odam ikkinchi marta qabul qila olmaydi. Buni hamma bilishi uchun bir marta koptokni qabul qilgan odan koptokni boshqa bir ixtiyoriy odamga uzatgach, chap qo'lini ko'tarib turishi kerak. Koptok hammadan birma

## O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik

bir o'tgach ohiri aylanib birinchi koptik uzatishni boshlab bergan ishtirokchiga qaytib kelishi kerak. Shundan so'ng ikkinchi to'p uzatish aylanasi amalga oshiriladi. Endi ishtirokchilar dastlabki martada kimga top uzatgan bo'lsa, xotirani ishga solgan holda shu ishtirokchiga topni uzatishi kerak. Bu safar chap qo'lni ko'tarib turish kerak emas. Ushbu top uzatish aylanasi hamma bir birini top qabul qiladigan va uzatadigan sherigini yodlab qolishadi. Uchinchi to'p uzatish aylanasi ularga ishtirokchilar soniga qarab 30 sekundan 1 daqiqagacha vaqt beriladi va ishtirokchilar tezlik bilan top uzatishni amalga oshirishlari kerak. Bu topshiriq uddalangach ularga record natija o'rnatish uchun yana bir imkon beriladi. Rekord o'rnatilgach, rekordni yarmga teng bo'lgan vaqtda top albatta hammaga tegishi sharti qo'yiladi. Bunda ishtirokchilarga ijotkorlik bilan yondoshish mumkinligi eslatib o'tiladi. Va so'ngida to'p hammaga tegib o'tishi kerak deb shart qo'yiladi va bu safar ularga 1 sekund vaqt beriladi. Shuningdek, yana bir marotaba ishtirokchilarga ijotkorlik bilan yondoshish mumkinligi eslatib o'tiladi.

### **Qutqaruv xalqa estafetasi**

**Maqsad:** jamoaviylikni shakllantirish, jamoa bo'lib bir maqsad yo'lida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli resurslar:** 4 yoki 6 santimetr diametrli ikkita bir xil plastmassa yoki qog'oz xaqlqachalar va ishtirokchilar soniga mos ravishda "tish kovlagichlar" yoki sterillangan toza 5-6 santimetrdagi yog'och cho'plar.

**Jarayon:** barcha ishtirokchilarni mos ravishda ikkita guruhga birlashtirib ya'ni teng bo'lib olish kerak. Undan so'ng ulardan o'z jamoalari bilan narigi jamoaga nisbatan qarama qarshi turib, bir qator saflanish so'raladi. Jamoalar saflangach har bir ishtirokchiga bittadan "tish kovlagichlar" tarqatiladi va har bir jamoa safida turgan birinchi ishtirokchiga xalqa beriladi. Shart shuki, ular xalqani qo' bilan ushlaymay tishi bilan tishish kovlagichlarni tishlab va xalqani unga ilgan holda orqadagi sherigiga uzatishi kerak. Hamda orqadagi ishtirokchilar ham uni tish kovlagichni tishlab unga ilgan holada qutqaruv



xalqasini qabul qilib olishlari kerak. Va saf ohirida turgan ishtirokchiga xalqa yetib borgach u saf boshiga o‘tib halqani yuqoridagi usul bilan orqaga uzatishi lozim. Xalqa uzatishni birinchi boshlagan ishtirokchi o‘z navbatida saf oldiga qaytib chiqqach, o‘sha ishtirokchi jamoasi g‘olib hisoblanadi. Qo‘l bilan harakat qilish, xalqani ushlab ta‘qiqlanadi. Xalqa tushib ketsa trener tomonidan xalqa qaytadan saf boshiga uzatilishi lozim.

Bu o‘yinda milliy-yetnik hususiyatlarga hos jinsiy tafovutlarni hisobga olib, tish kovlagichlarni tishlab xalqani uzatish o‘rniga, shunchaki kichkina jimjiloq barmoq bilan xalqani ilib sherigiga uzatishni tashkil etsa ham bo‘ladi.

### **Qo‘lqop va saqich estafedasi**

**Maqsad:** ishtirokchilarda quvnoq kayfiyatni paydo qilish hamda jamoaviylikni shakllantirish, jamoa bo‘lib bir maqsad yo‘lida ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli resurslar:** mos ravishda har bir ishtirokchi uchun 1 tadan saqich va ikki juft qo‘lqop.

**Jarayon:** barcha ishtirokchilarni mos ravishda ikkita guruhga birlashtirib ya‘ni teng bo‘lib olish kerak. Undan so‘ng ulardan o‘z jamoalari bilan narigi jamoaga nisbatan qarama qarshi turib, bir qator saflanish so‘raladi. Jamoalar saflangach har bir ishtirokchiga bittadan saqich beriladi va har bir jamoa safida turgan birinchi bir juft qo‘lqop beriladi. Shart shuki, ishtirokchilar qo‘lqopni kiyib saqichning ustidagi (muqovasini) qog‘ozni olib tashlab og‘ziga solishi kerak va tezda qo‘lqopni yechib ortidagi ishtirokchiga uztishi lozim. Keyingi ishtirokchi ham shu tarzda qo‘lqopni undan keyingi odamga uzatishi talab etiladi. Qaysidir bir jamoa safining eng ohirida turgan ishtirokchi ham qo‘lqopni kiyib saqichni og‘ziga solib qo‘lqopni yechsa, o‘sha jamoa g‘olib hisoblanadi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Jamoaviy liderlik bu-?
2. Shaxsning liderlik sifatlarini rivojlantirish bu-?
3. B.D. Parigin tomonidan liderlik nazariyasida qanday farqlashni nazarda tutgan?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgini” – 2022., 72b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
3. Djurayev R. X., Tolipov O'. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI. - 2008. 125 b.
4. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
5. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.- 352 b.

## TESTLAR TO'PLAMI

**“O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik” moduli bo'yicha test savollari**

**6. “Kompetentsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima ?**

- A. lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq” “mos kelmoq” degan ma’noni anglatadi\*
- B. inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi
- C. arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “mahorat” degan ma’noni anglatadi
- D. yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “men o‘rgataman, men o‘qitaman” degan ma’noni anglatadi

**7. Kompetentsiyaga berilgan ta’rifni toping?**

- A. olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati \*
- B. ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklarni qo‘llash
- C. o‘z sport turini chuqur bilish, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratish
- D. pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish qobiliyati

**8. “Kompetentlilik” deganda nima tushuniladi?**

- A. aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish \*
- B. pedagogik jarayonlarni nazorat qilish
- C. o‘zini o‘zi rivojlantirish
- D. yangiliklarni tatbiq etish

**9. “Kasbiy kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytiladi?**

- A. kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko‘nikmaga tayanib muvaffaqiyatli xal eta olishga qaratilgan faoliyat \*
- B. yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

- C. ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, muloqotga kirisha olish
- D. izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib boorish

**10. Kasbiy kompetentlik qanday sifatlardan iborat?**

- A. ijtimoiy, shaxsiy, texnologik, ekstremal, maxsus \*
- B. shaxsiy, kasbiy, innovatsion, ekstremal, maxsus
- C. ijtimoiy, kommunikativ, kreativ, texnologik, maxsus
- D. texnologik, metodik, psixologik, ekstremal, maxsus

**11. Psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ, kreativ kompetentliklar kasbiy kompetentlikning qaysi sifatiga tegishli?**

- A. maxsus kompetentlikka \*
- B. shaxsiy kompetentlikka
- C. ijtimoiy kompetentlikka
- D. ekstremal kompetentlikka

**12. "Ektremal kompetentlik" deganda nimani tushunasiz?**

- A. favqulodda vaziyatlarda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish \*
- B. kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish
- C. ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish
- D. pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

**13. Qaysi Qonunda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi belgilab berilgan?**

- A. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning 44-moddasi \*

- B. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning 41-moddasi
- C. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi" Qonunning 5-moddasi
- D. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi" Qonunning 44-moddasi

**14. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning 44-moddasida kimlarga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan?**

- A. tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar\*
- B. malaka sertifikatiga ega, tegishli ma'lumoti bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar
- C. kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar
- D. malaka sertifikatiga ega, tegishli ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligi bo'lgan shaxslar

**15. "O'rgatish" deb qanday faoliyatga aytiladi?**

- A. ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati\*
- B. mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq – atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash faoliyati
- C. ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati
- D. o'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan qismlardan tashkil topgan tuzilma faoliyati

**16. Ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?**

- A. ishtirokchilar, maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita, natija\*
- B. bilim, ko'nikma, malaka, mazmun, vosita, o'qitish, o'rgatish
- C. maqsad, mazmun, metod, shakl, o'qitish, o'rgatish, ishtirokchilar
- D. vositalar, natija, o'qitish, o'rgatish, bilim, ko'nikma, malaka

**17. Tizim nima?**

- A. o'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan qismlardan tashkil topgan tuzilma\*
- B. obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etib, uning hususiyati va shaklini o'zgartirish
- C. ta'lim oluvchilar his-tuyg'ulari, harakteriga maqsadga muvofiq ta'sir etish
- D. o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetish

**18. Ta'lim maqsadlari nimani belgilab beradi?**

- A. ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi
- B. obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etib, uning hususiyati va shaklini o'zgartirishni belgilaydi
- C. o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishni belgilaydi
- D. axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallashni belgilaydi

**19. Ta'lim mazmuni nima?**

- A. o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri \*
- B. ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar
- C. axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash
- D. ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

**20. "Metod" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani bildiradi?**

- A. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "bilish yo'li" degan ma'noni anglatadi \*
- B. inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik" degan ma'noni anglatadi.
- C. arabcha so'zdan olingan bo'lib, "mohirlik" degan ma'noni anglatadi.

D. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "o'rgataman" degan ma'noni anglatadi.

**21. Ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati nima deb ataladi?**

- A. ta'lim metodi\*
- B. ta'limning tashkiliy shakllari
- C. ta'lim maqsadi
- D. ta'lim mazmuni

**22. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasi deb nimaga aytiladi?**

- A. ta'limning tashkiliy shakllari \*
- B. ta'lim mazmuni
- C. ta'lim maqsadi
- D. ta'lim metodi

**23. Ta'lim vositalariga qanday ta'rif berilgan?**

- A. o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilar \*
- B. ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasi
- C. o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri
- D. ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati

**24. Ta'lim vositalari qanday turlarga ajratiladi?**

- A. bosma, texnik, real\*
- B. nofaol, faol, intergaol
- C. og'zaki, ko'rgazmali, amaliy



D. avtoritar, demokratik, liberal

**25. Davlat ta'lim standartlari (DTS) qanday hujjat hisoblanadi?**

- A. davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui \*
- B. obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etib, uning hususiyati va shaklini o'zgartirishni belgilaydi
- C. o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishni belgilaydi
- D. pedagoglar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmui

**26. O'quv predmetining mazmuni, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjat nima deb nomlanadi?**

- A. o'quv dasturi
- B. o'quv rejasi
- C. davlat ta'lim standartlari
- D. malaka talablari

**27. "Jamo" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani bildiradi?**

- A. arabcha so'zdan olingan bo'lib, "omma", "guruh" degan ma'noni anglatadi \*
- B. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "bilish yo'li", "yo'l" degan ma'noni anglatadi
- C. inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi.
- D. yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "o'qitish", "o'rgatish" degan ma'noni anglatadi.

**28. "Jamo" so'ziga berilgan ta'rifni toping.**

- A. ijtimoiy foydali faoliyat asosida jipslashgan, umumiy faoliyatga ega, bir-birlarini yaxshi biladigan odamlar guruhi \*

- B. ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati
- C. axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash
- D. ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagog va o'quvchining tartiblangan faoliyati

**29. Asosiy boshqarish uslublariga qaysilar kiradi?**

- A. avtoritar, liberal, demokratik\*
- B. nofaol, faol, intergaol
- C. og'zaki, ko'rgazmali, amaliy
- D. tartibli, stihiyali, mo'tadil

**30. "Liderlik" deganda qanday faoliyat tushuniladi?**

- A. umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni \*
- B. ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagog va o'quvchining tartiblangan faoliyati
- C. ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati
- D. ijtimoiy foydali faoliyat asosida jipslashgan, umumiy faoliyatga ega, bir-birlarini yaxshi biladigan odamlar guruhi



## GLOSSARIY

**Axloqiy muhit** - jamoada qabul qilingan umumiy axloqiy qadriyatlari bilan belgilanadi

**Darslik** – davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr

**Davlat ta’lim standartlari (DTS)** — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui. Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi. Ta’lim mazmunini o‘zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi.

**Davlat ta’lim standarti (DTS)** – 1) bu davlatning ta’lim darajasiga qo‘ygan meyori sifatida qabul qilinadigan asosiy parametrlar tizimi bo‘lib, muayyan shaxsning ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni anglatadi; 2) ta’limning zarur, yetarli darajasi va o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir.

**Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, travma olish holatlari, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Ijtimoiy muhit** - tashkilotda ishchilarning umumiy maqsad va vazifalarini qanchalik anglagani hamda ishchi va fuqarolarning xuquqlarini qanchalik amal qilinishi bilan belgilanadi

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish

**Jamoa** - arabcha “jam'o” so'zidan olingan bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Jamoa - ijtimoiy foydali faoliyat asosida jipslashgan, umumiy faoliyatga ega, bir-birlarini yaxshi biladigan odamlar guruhi.

**Kasbiy kompetentlik** –kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib, muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish

**Kompetensiya** – lotincha competere degan so'zdan olingan bo'lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma'nosini beradi

**Kompetensiya** – olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo'llay olish qobiliyati va layoqati.

**Kompetentlilik** – (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish tushuniladi.

**Kompetentlilik** – aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

**Maqsad** – qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

**Metod** - (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yo'l" degan ma'noni anglatadi) maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash

**Natija** – dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasi. Natijalar (mahsullar)–o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi

**O'quv dasturi** - o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjat

**Pedagogik jamoa** - ta'lim muassasasi pedagoglarining o'z-o'zini boshqarishga asoslangan hamkorligi hisoblanib, u o'z faoliyatini birgalikda qabul qilingan yoki ishlab chiqilgan yagona maqsadni amalga oshirishga qaratadi hamda o'zaro aloqador vazifadosh va maslakdosh guruh hamda alohida individlardan tashkil topadi.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan

ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish

**Psixologik muhit** - ya'ni norasmiy muhit, bir biri bilan o'zaro aloqada bo'luvchilar o'rtasida yuzaga keladi. Shunga muvofiq, psixologik muhit, bu mikromuhit, uning ahamiyati axloqiy va ijtimoiylardan kattadir

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**Standart** – muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjat.

**Ta'lim berish** – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

**Ta'lim maqsadlari** - muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi.

**Ta'lim mazmuni** – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri.

**Ta'lim metodi** – ta'lim jarayonida pedagog va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati

**Ta'lim vositalari** - o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilar

**Ta'limning tashkiliy shakli** - belgilangan tartibda sodir bo'ladigan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasi

**Ta’lim-tarbiya jarayoni** - ta’lim oluvchilar his-tuyg‘ulari, ongi, harakteri kabilarga maqsadga muvofiq ta’sir etib, ularda bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar shakllantirish tizimi

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Tizim** - o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan qismlardan tashkil topgan tuzilma.

**O‘quv qo‘llanma** – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, ayrim bob va mashg‘ulotlar yechimiga mo‘ljallangan nashr

**O‘rganish** - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq – atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlarining o‘zgarishi.

**O‘rgatish** - ta’lim maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati





## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5924-sonli farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog'lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-sonli farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son “Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60 sonli farmoni

### III. Maxsus adabiyotlar

8. Abdukarimov H. Qiziqarli pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.- 90 b.
9. Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2012.-110 b.
10. Akmalov A. Sport, malaka oshirish ta'limida innovatsiya va interfaol texnologiyalar – Toshkent: “Umid Dezgin” – 2022., 72b.
11. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 69 b.
12. Djurayev R. X., Tolipov O'. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI. - 2008. 125 b.
13. Golish L. V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. – Toshkent: Tasis, 2001. – 69 b.
14. Golish L.V. Ta'lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent: Tasis, 2001. – 43 b.
15. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish - Toshkent: Tasis, 2001. – 59 b.
16. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.- 352 b.
17. Pedagogika. A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
18. Ruzvelt Teodor. Liderlik qonunlari – T.: Sharq-Ziyo-Zakovat, 2021.- 278 b.
19. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
20. To'xtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi - 2006.- 345 b.
21. Tursualiyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy

qo‘llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.

22. Yeldasheva G., Karimova G. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. / T.: Lesson press, 2020

23. Zunnunov A. Pedagogika tarixi - Toshkent: Sharq, 2004. – 335 b.

24. Zunnunov A. va boshqalar. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan, 1996. – 350 b.

## **V. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://edu.uz/>
2. <http://eduportal.uz/>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://minsport.uz/>
5. <http://natlib.uz>
6. <http://sportedu.uz/>
7. <http://utube.uz/>
8. <http://uzedu.uz/>
9. <http://ziyonet.uz/>